



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2023
1/11/1

Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., professor.

R.X. SHIRINOVA – fil.f.d., professor

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdullayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Mengliyev B.R. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: Z.A.PARDAYEV

TOSHKENT – 2023

MUNDARIJA

Tarix

Abdullaev B. Zardusht 29-qo'shig'i xususida ba'zi mulohazalar	5
Allaberganov Sh., Jumanazarovna F. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazmda aloqa tizimida faoliyat yuritgan xodimlar	8
Burxonov I. Tarixchi olim A.O'rinboyev ilmiy merosida katalog masalasi tarixidan	11
Jumaeva Sh., Qobilov E. Toshkent vohasi ziyoratgohlari to'g'risidagi yozma manbalar	14
Zaripboyeva U. Xonqa tumanidagi muqaddas qadamjolar.....	17
Ismatova Z. Buxoro vohasi toponimlarining manba va adabiyotlarda yoritilishi	20
Karimova M. Ayollar ishtirokida o'tkaziluvchi bir marosim xususida (Farg'ona vodiysi misolida)	23
Qobilov E., Ashurova U. Uzoq Sharqdan O'zbekiston SSR ga deportatsiya qilingan koreyslarning tarixshunosligi.....	26
Muxiddinova M. Mang'itlar davrida oliy ta'lim maskanlari va ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni	29
Namazova U. From the history of Samarkand institute of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnologies: history of the first half of the XX century.....	34
Normurodov D. Toshkent vohasining Turk xoqonligi davri "Tosh haykal – balbal"lari xususida	37
Olimov I. O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish borasida xalqaro hamkorliklarining ahamiyati	41
Omonov D. Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligidan topilgan bosma naqshli sopol buyumlar	45
Ro'ziboyev T., Baxriddinov N. Kochaksoy yangi qoyatosh rasmlari dastabki tadqiqotlari xususida	49
To'raxo'jaev S. Turkistondan harbiy asirlar reevakuatsiyasi	52
Xolliyev A. Rossiya xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalar faoliyatining qonunchilik asoslari (XIX – XX asr boshlari).....	56
Xushboqov P. Sherobod sho'rolar davrida	59
Egamov N. Kutubxonachilikni rivojlantirish va kitobxonlikni oshirish masalasi tadqiqotchilar nigohida	62
Ernazarov T. Economic and political order of the Russian empire in Turkestan: analysis of the creation and activities of the customs service	65
Yusupova G. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy hayotida Farg'ona iqtisodiy rayonining o'rni (XX asrning 50-80 yillari) ..	68
Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik	
Abdullayev A. Abu Rayhon Beruniyning aniq fanlar, tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid ilmiy qarashlarining g'arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta'siri.....	71
Abdullayev S. Yangi O'zbekistonda ta'lim va bandlik: bandlikni oshirishning ijtimoiy mexanizmlari	74
Abdullayev X. O'zbekiston- Qirg'iziston munosabatlari.....	77
Abdunazarova Z. Theoretical background of teaching and enhancing productive speech in specialized language universities.....	80
Abdurasulova Sh. Kredit-modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarda muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	83
Abdusamatov X. Oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari	86
Avliyaqulov T., Bo'rieva D. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini tarbiyalashda maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar	89
Alimov M. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda mediata'limdan foydalanishning afzalliklari (Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalarini o'qitish fani misolida)	92
Amonov M. Ekoturizm tizimida ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos falsafiy xususiyatlarini takomillashtirish zaruriyati ..	95
Arzibayev Q. Sport faoliyati motivlarining dinamik namoyon bo'lishi.....	98
Achilova M. Pedagoglarda empatiya hissin rivojlantirishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	101
Berdiyev F. Ijtimoiy tartib o'lchovlarining mazmun-mohiyati	104
Boboqulova X. Milliy o'zlikni anglashdan milliy tiklanish sari ijtimoiy yuksalish	106
Botirova D. Pedagoglarda kasbiy so'nish muammosining ijtimoiy-psixologik tatqiqi va asoslari	109
Buronova G. Mathematical and statistical analysis of the use of virtual pedagogical tools in teaching robotics	112
Gaybiyeva M. O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida professional ta'lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlashdagi muammo va yechimlar	115
G'ofirov M. Muhandislik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarining umumkasbiy tayyorgarligi talablari	118
Давронова Ф. Значение имитационной моделей в преподавании химии	120
Dadajonova F. Saylov tarixida qonun va ahloq munosabatlari	123
Jabborov I. Hozirgi zamon oilalarida er-xotin munosabatlariga xos inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	126
Jumayev X. Shaxs xotirasini rivojlantirishning nazariy jihatlarini	129
Jumaeva G. Qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida keksalarning ijtimoiy moslashuv muammolari	131
Jo'raboyeva M. Conceptual foundations for the formation of economic education in cadets on an integrative approach ..	133
Zakirova F. IIV xodimlari va kursantlari tibbiy kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari.....	136
Ibodov M. Shaxsda ma'naviy sifatning tarkib topishida Imom Termiziy hadislarining ahamiyati	139
Ibodullayeva I. Zamonaviy maktab o'qituvchisi va o'quvchilari munosabatlarining psixologik xususiyatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	142
Irgashov G. Talabalar faolligini oshirishda interfaol ta'lim usullarining ahamiyati	145
Isomiddinov E. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning konseptual asoslari	148
Ishankulova G. Sharq mutafakkirlari asarlarida gender munosabatlarning ijtimoiy psixologik omillari	151
Kadirova X. O'zbek tilini o'qitishda o'yin texnologiyasining o'ziga xos yondashuvlari	154
Kariyeva D. Methods of teaching economical terms	157
Karimova K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nostandart masalalar yechishga o'rgatish	160
Karimova M. Biologiya fanidan talabalarni metodik tayyorgarligini amalga oshirishning nazariy asoslari	163



Golibjon IRGASHOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Nemis til kafedrası o'qituvchisi
E-mail: irgashov.g@cspi.uz

F.f.f.d., dotsent Z.Sanakulov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS IN INCREASING STUDENT ACTIVITY

Annotation

This article presents analysis and opinions on teaching methods that have a positive impact on the quality of education and are extremely effective in increasing student engagement. In addition, the article presents types of interactive educational methods, research results and conclusions of scientists who analyzed them.

Key words: Interactive, method, design method, discussion method, heuristic conversation, brainstorming, role-playing games.

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ПОВЫШЕНИИ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье представлены анализ и мнения о методах обучения, которые положительно влияют на качество образования и высокоэффективны в повышении активности учащихся. Кроме того, в статье приведены виды интерактивных образовательных методов, исследования и выводы ученых, их анализировавших.

Ключевые слова: Интерактив, метод, метод проектирования, метод дискуссии, эвристическая беседа, мозговой штурм, ролевые игры.

TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL TA'LIM USULLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushu maqolada dars mashg'ulotlarida ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiluvchi va ta'lim oluvchilar faolligini oshirishda samaradorligi yuqori bo'lgan o'qitish metodlari haqida tahlillar va fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada interfaol ta'lim metodlarining turlari, ularni tahlil qilgan olimlar tadqiqotlari va xulosalari o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Interfaol, usul, loyihalash usuli, munozara usuli, evristik suhbat, aqliy hujum, rolli o'yinlar.

Kirish. Ta'limning yangi maqsadlariga yo'naltirish nafaqat o'rganilayotgan fanlar mazmunini, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etish usullari va shakllaridagi o'zgarishlarni ham, dars jarayoni davomida ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirishni ham, o'rganilayotgan mavzularni imkon qadar borliq hayotga yaqinlashtirishni va duch kelinadigan muammolar yechimlarini izlab topishni ham talab qiladi.

Interfaol ta'lim usullari - nafaqat ta'lim oluvchilarning, balki ta'lim beruvchining ham birgalikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim hisoblanadi. Ta'limning interfaol usullari shaxs kamolotiga yo'naltirilgan yondashuvga mos keladigan eng dolzarb usul hisoblanadi, chunki ular hamkorlikdagi jamoaviy ta'limni o'z ichiga oladi va ta'lim oluvchi ham, ta'lim beruvchi ham ta'lim jarayonining subyektlari hisoblanadi. ta'lim beruvchi ko'pincha faqat o'quv jarayonining tashkilotchisi, guruh rahbari va ta'lim oluvchi tashabbusining sharoit yaratuvchisi sifatida ishlaydi.

Bundan tashqari, interfaol ta'lim ta'lim oluvchilarning o'z tajribalari va do'stlarining tajribasi bilan bevosita o'zaro munosabatlariga asoslanadi, chunki ko'pchilik interfaol mashqlar nafaqat ta'limga, balki shaxsiy tajribaga ham murojaat qiladi. Ana shunday tajriba asosida yangi bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida interfaol o'qitish usullari ta'lim oluvchilarning o'rganish tezligini keskin oshirishi aniq bo'ldi. Ushbu tadqiqot natijalari „o'rganish piramidasi“ deb nomlangan jadvalda aks ettirilgan: o'rganishning eng past foizi passiv usullar uchun (ma'ruza - 5%, o'qish - 10%) va eng yuqori - interfaol (munozara guruhlar - 50%, harakat orqali mashq qilish - 75%, boshqalarga o'rgatish - 90%). Shu o'rinda quyidagi xitoy maqolini keltirib o'tish o'rinlidir: „Aytib bersang, bir muddatdan so'ng esdan chiqaraman. Ko'rsatib bersang, eslab qolishim mumkin. Agar buni o'zim bajarib ko'rishimga ruxsat bersang, u abadiy meniki bo'lib qoladi.“

Ta'lim berishning passiv usullari, odatda, faqat bilim va tushunish darajalariga qaratilgan bo'lsa, interfaol usullar o'rganishning barcha darajalarini o'z ichiga oladi.

Lekin yuqorida aytilganlarning barchasi, albatta, faqat interfaol usullardan foydalanish kerak degani emas. O'rganish uchun barcha turdagi usullar va bilishning barcha darajalari muhim ahamiyatga ega. Passiv va interfaol usullarning ijobiy va salbiy

tomonlari mavjud. Har bir ta'lim beruvchi o'zining maqsadi va ish sharoitiga qarab o'z ta'lim usullarini tanlashi kerak.

Asosiy qism. Interfaol usullar jumlasiga quyidagi usullarni kiritishimiz mumkin: munozara, evristik suhbat, aqliy hujum, rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, treninglar, loyihalash usuli, ko'rgazmali materiallar bilan guruhda ishlash, videolarni muhokama qilish va boshqalar.

Turli fanlarni o'rganishda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan eng muhim interfaol usullarni ko'rib chiqmoqchiman.

Loyihalash usuli

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida ta'lim oluvchilarning loyiha faoliyati ta'limning belgilangan maqsadlariga - kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga judayam mos keladi. Loyihalash usuli ta'lim oluvchilarning kognitiv qobiliyatlarini, ijodiy tashabbuslarini, mustaqil fikrlash, muammolarni topish va hal qilish kabi qobiliyatlarini o'stirish g'oyasiga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish texnologiyalaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Yakunda asosiy natijasi haqiqatga erishish bo'lgan ta'lim va tadqiqot faoliyatidan farqli o'laroq, ta'limda loyihalash usuli amalni har tomonlama va tizimli o'rganishga qaratilgan bo'lib, amaliy natija - o'quv mahsulotini olishni o'z ichiga oladi. Mahsulot videofilm, albom, plakat, gazeta maqolasi, ko'rsatma, teatr tomoshasi, o'yin (sport, tadbirkorlik), veb-sayt va boshqalar bo'lishi mumkin. Loyihalash usuli hisobotlar, tezislar tayyorlash, tadqiqot va ijodiy faoliyatning boshqa turlarini o'z ichiga oladi. Loyihani bajarish jarayonida ta'lim oluvchilar nafaqat o'quv, balki o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'lumotnoma adabiyotlaridan ham foydalanadilar. Ta'lim beruvchining vazifasi qayd etilgan natijalarni tahlil qilish jarayonini kuzatish, maslahat berish va boshqarishdir.

Loyihani amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchi faol kognitiv ijodiy jarayonda ishtirok etadi; Shu bilan birga, mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni mustahkamlash ham, yangi bilimlarni o'zlashtirish ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari, fandan tashqari loyihalash jarayonida tadqiqot, mulqot, tashkiliy va boshqaruv qobiliyatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari va shu kabi boshqa ko'nikmalar ham shakllanadi.

Munozara usuli

O'quv munozaralari - bu ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati shakli bo'lib, unda o'quv jarayoni sub'ektlari muhokama qilinayotgan ta'lim muammosi bo'yicha o'z fikrlari, g'oyalari va mulohazalarini tartibli va maqsadli almashadilar. O'quv sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakli sifatida muhokamalar so'nggi paytlarda turli darajadagi kasbiy ta'lim muassasalari ta'lim beruvchi larining amaliy faoliyatida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ulardan muammoli o'quv konferensiyalari, anjumanlar o'tkazishda, fanlararo murakkab tasnifdagi muammolarni muhokama qilishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Munozara pedagogikaning „ta'lim beruvchi - ta'lim oluvchi“ va „ta'lim oluvchi - ta'lim oluvchi“ turidagi hamkorlik elementlaridan foydalanish imkonini beradi, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yo'qoladi va ishtirokchilarning dunyoqarashlari ta'lim jarayonining umumiy mulkiga aylanadi.

Munozara jarayonida muloqot qilish (gapirish, savol tuzish va berish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, suhbatdoshini hurmat qilish, uning fikrini eshitish va boshqalar), tahlil va muhokama qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, muammolarni aniqlash, ularni hal qilish kabi ijtimoiy muloqot qobiliyatlari va boshqa ko'nikmalar shakllanadi.

O'yin usuli

O'yin bolalarga ham, kattalarga ham xos bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi, shuning uchun o'quv jarayonida ushbu faoliyat turidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'yin usulidan foydalanilganda o'rganilayotgan mavzuni o'rganishga beixtiyor qiziqishning paydo bo'ladi. Bunday holda, o'rganilayotgan mavzu jiddiy va chuqur idrok etilishi kerak bo'ladi. O'yin muayyan muammoni noto'g'ri tushunishga olib kelmashiga kerak, talabalarga o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi singdirilishi va o'quv jarayoni nafaqat qiziqarli o'yindan iborat bo'lib qolmasligini tushunishlari kerak. O'quv muammolarini hal qilish uchun har xil turdagi o'yinlardan foydalanish - ishbilarmonlik, simulatsiya, roli o'yinlar fan o'quv jarayoni davomida rang-baranglikni keltirib chiqaradi, ushbu fanni o'rganish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirishiga olib keladi. O'yin ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini rag'batlantiradi va hatto eng sust o'zlashtiruvchilarni ham jalb qiladi.

Shu bilan birga, o'yin ishtirokchilari yangi tajribalarni, yangi rollarni o'zlashtiradilar, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar, olingan bilimlarni turli sohalarida qo'llash qobiliyatini, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini, bag'rikenglik va mas'uliyatni rivojlantiradilar.

„Aqliy hujum“ usuli

Muammoni hal qilish bo'yicha g'oyalarni shakllantirishga qaratilgan bu usul uyushgan muhokama paytida qo'yilgan muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish jarayoniga asoslanadi. Topshiriq kasbiy ahamiyatga ega yoki fanlararo muammoni o'z ichiga olishi mumkin. Shu bilan birga, guruh a'zolari tomonidan bildirilgan barcha g'oyalar va takliflar, odatda, katta qog'ozga yozilishi kerak, shunda ularni tahlil qilish va umumlashtirish mumkin bo'ladi. G'oyalarni ketma-ket qayd qilish bir g'oyaning boshqa g'oyalarni qanday keltirib chiqarishini kuzatish imkonini beradi. Raqobat ruhi ta'lim oluvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

„Aqliy hujum“ usuli sizga eng ko'p miqdordagi talabalarni faol faoliyatga jalb qilish imkonini beradi. Ushbu usuldan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi mavzuni tushuntirish, egallangan bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilish, aniq mavzu bo'yicha umumiy darsda olingan bilimlarni mustahkamlash.

„Aqliy hujum“ bu kichik va katta guruhlarda ta'lim oluvchilarning kognitiv faolligini rag'batlantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usulidir. Bundan tashqari, o'z nuqtai nazarini ifodalash, boshqalarni tinglay bilish va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

To'g'ri tashkil etilgan aqliy hujum uchta majburiy bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. Bosqichlar tashkiliy jihatdan va ularni amalga oshirish qoidalarida ko'ra quyidagicha farqlanadi:

Muammoning bayoni. Dastlabki bosqich. Ushbu bosqichning boshida muammo aniq shakllantirilishi kerak. „Hujum“ ishtirokchilari tanlanadi, rahbar aniqlanadi va ishtirokchilarning boshqa vazifalari qo'yilgan muammoga va „hujum“ni o'tkazishning tanlangan usuliga qarab taqsimlanadi.

G'oyalarni shakllantirish. Asosiy bosqich. „Aqliy hujum“ning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan bosqich. Shuning uchun, ushbu bosqich uchun qoidalariga rioya qilish juda muhim: asosiy narsa - g'oyalar soni; tanqidni va boshqa har qanday bildirilgan fikrlarni ham, shu jumladan ijobiy baholashni ham to'liq taqiqlash, chunki baholash asosiy vazifadan chalg'itadi va ijodiy ruhni buzadi; g'ayrioddiy va hatto noto'g'ri g'oyalar ham anglashilib qabul qilinishi mumkin.

G'oyalarni guruhlash, tanlash va baholash. Bu bosqich ko'pincha unutiladi, lekin bu bizga eng qimmatli g'oyalarni ta'kidlash va aqliy hujumning yakuniy natijasini berishga imkon beradi. Bu bosqichda, ikkinchisidan farqli o'laroq, baholash cheklanmaydi, aksincha, rag'batlantiriladi. G'oyalarni tahlil qilish va baholash usullari xilma-xil bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichning muvaffaqiyati bevosita ishtirokchilar g'oyalarni tanlash va baholash mezonlarini qanchalik "teng" tushunishlariga bog'liq.

Aqliy hujum jarayonida, odatda, dastlab yechimlar unchalik ishonchli bo'lmasa-da, bir muncha vaqt o'tgach, odatdagi, ma'lum qoliqli yechimlar tugaydi va ishtirokchilarda noodatiy g'oyalar paydo bo'la boshlaydi. Boshqaruvchi aqliy hujum paytida paydo bo'lgan barcha g'oyalarni yozib boradi yoki boshqa yo'l bilan ruyxat qilib oladi.

So'ngra barcha fikrlar bildirilgach, ular tahlil qilinadi, ishlab chiqiladi va tanlanadi. Natijada, muammoning eng samarali va ko'pincha ahamiyatsiz bo'lmagan yechimi topiladi.

Evristik suhbat

Evristik suhbatning asoschisi faylasuf Suqrotidir. U hech qachon tayyor javob bermagan. U o'z savollari va e'tirozlari bilan suhbatdoshini to'g'ri qarorlar sari yo'naltirishga harakat qilgan. Suhbatning bu shakli endi Suqrot usuli deb ham ataladi.

Evristik suhbatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'quvchilar ta'lim beruvchi ning mohirona savollar tuzishi va o'z harakatlari va mustaqil fikrlashlari orqali yangi bilimlarni egallashiga olib keladi.

Evristik suhbat usulidan foydalangan holda o'quv materialini taqdim etayotgan ta'lim beruvchi vaqti-vaqti bilan ta'lim oluvchilar jamoasiga ularni qidiruv jarayoniga jalb qilishga undaydigan savollar bilan murojaat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, evristik suhbat usulini qo'llash uchun ta'lim beruvchi yetarli darajada yuqori malaka va bilimga ega bo'lishi kerak.

Ko'rib chiqilgan usullarni, shuningdek, o'qitish amaliyotini qiyosiy tahlil qilish bizga turli fanlarni o'rganishda ularning barchasini bir xilda qo'llash mumkin emas degan xulosaga kelishga imkon beradi. Ularni tayyorlash va amalga oshirish uchun juda ko'p vaqt talab qiladigan ba'zi usullar (loyiha usuli, o'yin usuli) darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish yoki o'rganilgan mavzuni umumlashtirish va fanlararo aloqalarni amalga oshirish orqali bilimlarni birlashtirish uchun tavsiya etilishi mumkin. Mashg'ulotlarni tashkil etishning tadqiqot, muhokama shakllari, shuningdek, "aqliy hujum" auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali usullari hisoblanadi.

Yuqoridagi o'rganilganlardan kelib chiqqan holda, biz ulardan foydalanishdan eng yuqori samaradorlikka erishish va ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish uchun o'quv jarayonini tashkil etishning turli usullari va shakllarini birlashtirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

- Sanakulov Z. (2021). Немис тили сўз ясалиши усулларининг лингвистик ўзига хос хусусиятлари. актуальное в филологии, 3(3).
- Irgashov, G. (2022). Grundsätze der effektiven entwicklung interkultureller kompetenzen im fremdsprachenunterricht. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 10 | 2023, 60-64
- Irgashov, G. (2021). Nemis tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalar usullaridan foydalanish. Development issues of innovative economy in the agricultural sector, 1, 457–459.
- Санакулов, З. И. (2021). Анализ принципов передачи производных слов в немецко-узбекских словарях и рекомендации по их улучшению. Вестник Челябинского государственного университета, (4 (450)), 107-114.
- Rakhmatov, F. (2021). The productive skill "speaking". Экономика и социум, (12-1 (91)), 531-533.
- Базилевич С.В., Брылова Т.Б., Глухих В.Р., Левкин Г.Г. Использование инновационных и интерактивных методов обучения при проведении лекционных и семинарских занятий // Наука Красноярья. — 2022. — № 4. — С. 103—113.

7. Abdukhalilova, D. (2022). Problems of productive skills. speaking. Экономика и социум, (6-1 (97)), 3-5
8. Shirnazarova, Z. A. (2023). the concept of “intercultural communication” in te context of todety’s society. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(03), 174-179.
9. Shukhratovich, F. M. (2023). the most important aspects of reading in foreign language lessons. Open Access Repository, 9(1), 145-148.
10. Иоффе А.Н. Активная методика - залог успеха / Гражданское образование. Материал международного проекта. СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2022. 382 с.
11. Kuvonov, Z. M. (2023). Color component phraseology in german and uzbek languages and their semantic analysis. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(03), 109-144.
12. Kuvonov, Z. (2022). Phraseology in the interpretation of german linguists. Экономика и социум, (6-1 (97)), 157-160.
13. Ibodullayevich, S. Z. (2021). The structure of bilingual dictionaries and their analyse (on the example of German-Uzbek dictionaries). Modern scientific challenges and trends, 191.
14. Irgashov, G. (2022). Nemis tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalar usullaridan foydalanish. «Муғаллим Хэм Үзликсиз Билимлендириў» . Илимий-Методикалык Журнал, 460–463.